

JADID MA`RIFATPARVARLARI FAOLIYATIGA NAZAR. XUDOYBERGAN DEVONOV.

Yomonqulova Sevinch Shodiyor qizi

TDPU. Tarix fakulteti II bosqich talabasi @malagim33@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid nomoyondalaridan Xudoybergan Devonovning hayoti va faoliyati tahlil qilingan bo`lib, uning qatag`on qurboni bo`lishigacha bo`lgan davrdagi hayot yo`liga chizgilar yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Kinooperator, madrasa, fotografiya, mennoit nemislar, Islomxo`ja, Turkiston, Vilhelm Penner, fotoapparat, grammafona, Asfandiyorxon, ma`rifatparvar.

Birinchi o`zbek kinooperatori va o`zbek kinosan`atining asoschisi Xudoybergan Devonov 1879-yilda Xivada, badavlat oilada tug`ilgan. Otasi Nurmuhammad devon (mirza) Xiva xonining Xo`jaylidagi mulklari boshqaruvchisi bo`lgan.

Bolaligidan bilimga chanqoqligi va ijodiy iste`dodi bilan ajralib turgan. U arab, fors va rus tillarini o`rgangan. Xudoybergan Xivadagi madrasada savodini chiqargan, arab tilini o`rgangan. Adabiyot bilan oshno bo`lib, she`rlar yozib turgan. Soatsozga shogirdlikka tushgan. Ko`plab musiqa asboblari chalishni bilgan. Bog`dorchilikka qiziqib, bog`da atirgullarning 40 ga yaqin navlarini o`stirgan. Ammo uning taqdiriga fotografiya va kinematografiya sohasida nom qozonish yozilgan edi.

Xudoybergan hayotida tub burilish yasagan voqea - Xiva yaqinidagi Oqmachit qishlog`ida yashaydigan mennonit nemislar jamoasi vakili Vilhelm Penner bilan uchrashuv bo`lgan.

Gap shundaki, XIX asr oxirida Xorazmning o`sha paytdagi hukmdori Muhammad Rahimxon II nemis-mennonitlarning bir necha oilasiga o`lkada yashashiga ruxsat bergan. Mennonit nemislar (yoki Menno Simmons muridlari) 1882-yilda Xiva xoni Said Muhammad Rahimxon II taklifi bilan Rossiyadan ko`chib kelishgan. Ular an'anaviy nasroniylikdan farq qiladigan diniy e`tiqodi tufayli Niderlandiya, Germaniya va Polshada siquvga olingan va yashash joyini tashlab, ko`chib ketishga majbur bo`lishgan. 1884-yilda Xiva yaqinidagi Oqmachit qishlog`ida mennonit nemislarining 40 oiladan iborat jamoasi qo`nim topgan²⁶. Ularning eng yoshi ulug`i Vilhelm Penner yoki mahalliy odamlarning tili bilan Panor buvada qiziquvchan Xudoybergan birinchi marta fotoapparatni ko`rgan va undan foydalanishga ruxsat so`ragan. Keyinchalik Panor buva shogirdining muvaffaqiyatlaridan xursand bo`lib, unga fotoapparatni sovg`a qilgan²⁷.

Aynan mana shu voqea yosh Xudoybergan hayotida katta burilish yasaydi. Qiziquvchan o'smir nemis tilini o`rgana boshlagan va bu ham kelgusida uning taqdirini belgilab bergan edi.

Aynan Xonliklar davrida diniy muttasiblik avjida edi, ular har qanday yangilikka qarshi chiqishdi. Islom jamiyatida tirik mavjudodlar va inson tasvirini chizish va tasvirlashga asrlar davomida taqiq qo'yilgan edi. Chunki musulmonlar san'atining asosi tasvir emas, xattotlik, ya'ni chiroyli yozish san'ati bo`lgan. Shunday bir vaziyatda Xiva xoni Muhammad Rahimxon II

²⁶ <https://kun.uz/news/2021/11/07/xudoybergan-devonov>

²⁷ <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/84>

(taxallusi Feruz) uni o'z himoyasiga oladi. Muhammad Rahimxonning o'zi ham she'riyatga qiziqgan va Feruz taxallusi bilan she'rlar yozgan. Musiqaga va yangiliklarga qiziquvchan inson bo'lganligi uchun ham yosh tasvirchini o'z panohiga oladi. Aynan Muhammad Rahimxon o'zining suratlarini ham Devonovga oldirgan edi. Uning vafotidan keyin esa ma'rifatparvar va Taraqqiyparvar g'oyalari va ishlari bilan mashhur bo'lgan bosh vazir Islomxo'ja yosh fotosuratchini o'z qanoti ostiga oladi. (Islomxo'ja ham ma'rifatparvar inson bo'lib Xiva xonligidagi madaniy ishlarda o'rni katta bo'lgan, ko'plab madrasalar bunyod etgan, ilm-fanni targ'ib qilgan oqil vazirlardan biri edi).

Xudoybergan Devonov 1903-yilda Polvonniyoz Xoji Yusupov bilan birga Maskvaga borib, soatsozlik va zarur foto anjomlarini olib keladi. 1907-yilning so'ngi oylarida Islomxo'ja boshliq Xivalik elchilarning Peterburgga qilgan safarlarida fotograf sifatida qatnashadi. Peterburgda bir necha oy qolib, kino operatorlik kasbini egallaydi. 1908-yil bahorida vataniga "Pate" kinoapparati, bir necha foto apparat hamda grammafon bilan qaytadi. U shu vaqtdan boshlab foto va kino ishlari bilan muntazam shug'ullanadi. Uning "Xalq sayillari" deb nomlangan birinchi kinolavhasi ham taxminan shu yillarda sur'atga olingan²⁸. Ushbu kinolavhada asr boshlarida Xiva xonligi hududlarida yashagan o'zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq millatlariga mansub kishilarning madaniy va maishiy-etnografik hayoti manzaralari tasvir etilgan. Shu davrda yashagan insonlarning hayoti, ularning etnik qiyofasini va o'sha muhitni biz u olgan sur'atlar orqali ko'ra olamiz. Qay bir ma'noda o'sha muhitdagidek o'zimni tasavvur qila olamiz.

Vatanga qaytgach u Markaziy Osiyodagi birinchi foto-kinolaboratoriyani tashkil etadi. Zudlik bilan suratga olish ishlarini boshlaydi. Bir vaqtning o'zida odamlar gavjum joylarda o'zi olgan lavhalar va xorijdan keltirgan kinotasmalarini namoyish etib, vatandoshlari orasida yangi san'at turi ommalashishiga hissa qo'shadi. 1908-yilda tom ma'noda o'zbek kinosi tug'iladi.

Xudoybergan Devonov ijodini rus kinosan'atkorlari faoliyati bilan deyarli bir vaqtda boshlangan edi. Hattoki ulardan oldinroq boshlagan desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Chunki u vatanga qaytgach oddiy aholining turmush tarzini kinotasmaga muhrlaganda ruslar hali ilk kinolarini u paytda chiqarishmagan. Tarixdan ma'lumki bizning diyorimizda ilm-marifatli insonlar ko'plab tug'ilgan. Ularning hayotlari davomida ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishgan. Xonliklar davrida va o'sha davrda ham ilmlilarga yon bo'sishmagan

Aytish mumkinki, 1908-yilda Rossiyada "Понизовая вольница" yoki "Стенка Розан и княжна" degan ilk kino asar ekran yuzini ko'rganida Xudoybergan Devonov allaqachon o'z davrining muhim voqealarini tasmaga tushurib ulgurgan edi²⁹. Bu ham Devonovning qanchalar uddaburon va o'z kasbini ustasi ekanligini ko'rsatadi. Aynan uning say'i-harakatlari sababli biz o'sha davr tarixini mukammal o'rgana olamiz va o'z ko'zimiz bilan shu tarixni ko'rishimiz mumkin.

1910-yili 7-avgustda Muhammad Rahimxon II vafot etgach, Xiva taxtini uning o'g'li Asfandiyorxon egallaydi. 1912-yil Asfandiyorxon Rossiyaga qilgan safarida Xudoybergan Devonovni ham olib ketadi. U 1913-yilda ilk bor Turkiston shaharlari bo'ylab sayohatga chiqadi

²⁸ В.Ирзаев, Ю Рахмонова. Хоразм вилояти.Хотира китоби. Б 114-121

²⁹ В.Ирзаев, Ю Рахмонова. Хоразм вилояти.Хотира китоби. Б 114-121

U "O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari", "Turkiston ko'rinishlari", "Xiva va xivaliklar" kabi qisqa filmlarni ishlagan³⁰. O'z filmlarida vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan. Xorazm xalqi urf-odatlarini ifodalangan mingga yaqin fotosurat yaratdi.

Xudoybergan Devonov 1916-yilda Xiva xonining mustabid zulmiga qarshi xalq qo'zg'aloni vaqtida "Yosh xivaliklar" safiga kiradi. 1917-yilda Asfandiyorxondan xuriyat olib, Majlis tashkil qilinganda u Majlisga haqiqiy a'zosi bo'lib saylanadi. 1920-yilda Xorazmda birinchi qurultoy tomonidan Davlat nazorati noziri, 1921-yil boshida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi qog'oz korxonasiga boshliq, 1922-yilning iyul oyida Xorijiy ishlar komissari etib tayinlandi. 1923-yil Maskvada ochilgan. Qishloq xo'jalik vistavkasiga Xorazm bo'limini uyushtirish uchun yuboriladi. XXSR III Qurultoyida Xudoybergan Devonov moliya noziri etib tayinlanadi³¹.

Mana shu vaqt mobaynida Devonov o'z vatani uchun ko'plab ishlarni amalga oshiradi.

1920-yili Xiva xonligi tugatilib, Xorazm Xalq sovet respublikasi tuziladi. Xudoybergan Devonov yangi davlatning moliya vaziri etib tayinlanadi. Kasbiga oid vazifalarni bajarish chog'ida u juda ko'p marta Moskvaga safar qiladi, yangi filmlarni olib keladi. "Sovkino" jamiyatining hududiy muxbiriga aylanadi. Uning kinolavhalari «Soyuzkinojurnal» seriyalarida namoyish etiladi. "Ishchi ayollar", "Sho'rko'l", "Ko'za", "Chig'ir", "Tuzkon", "Degish ofati", "Xorazm dalalarida", "Paxta karvoni" singari hujjatli film va syujyatlarni suratga olib yuboradi³². Uning mehnati natijasi o'laroq, dunyo xalqlari ko'p millatli Xorazmning qadimiy, o'ziga xos madaniyati bilan tanishadi va hozirgi kunda ham tanishish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Nafaqat dunyo ahli balki o'zimiz ham o'sha davr tarixini ko'zimiz bilan ko'rishimiz mumkin.

1926-yilga qadar Xorazm viloyati moliya bo'limi boshlig'i bo'lib xizmat qiladi. Ayni paytda fotograf va kino operator sifatidagi faoliyatini ham davom ettiradi. Devonov Xorazm Respublikasining "Mehnat" ordeni bilan taqdirlangan edi. 1925-yilda Toshkentda kinostudiya tashkil etilishi bilan u taklif etiladivaga unga Xorazm vohasida ro'y berayotgan voqealarni sur'atga olish vazifasi topshiriladi. Ko'p o'tmay, Moskvadagi "Sovkino" kinobirlashmasi Xudoybergan bilan ijodiy aloqa o'rnatib, uni Stuyaning O'rta Osiyo bo'yicha muxbiri etib tasdiqlaydi³³.

1928-yil 3-avgustda Xorazmda Devonov tug'ilgan kunining 50, ijodiy faoliyatining 25 yilligi keng nishonlangan. Shijoatli, jonkuyar fotograf Devonov xalq orasida juda ardoqlangan. Uning 13 nafar shogirdlari ham bo'lgan. U ham boshqa jadidlar singari Xorazmda fotografiya maktabini ochadi. Xudoybergan nafaqat o'zbek xalqi orasida balki, SSSR va O'rta Osiyoda ham shuxrat qozonadi. Uning vatani uchun qilgan xizmatlari juda ko'p.

Afsuski, XX asning 30-yillarida Stalin uyushtirgan qatag'on mashinasi Xudoybergan Devonovni ham chetlab o'tmaydi. 1937-yilning 17-avgustida u qamoqqa olinadi. 4-sentyabr kuni uyida tintuv o'tkaziladi. 8-sentyabrda Urganch shahrida o'tkazilgan sud majlisi 20 minut davom etadi va u O'zbekiston SSRni SSSRdan ajratib olib, burjua davlatni barpo etish maqsadini qo'ygan aksilinqilobiy, millatchilik, qo'zg'olonchilik, terrorchilik va diversiyazararkunandachilik tashkiloti bilan aloqa o'rnatganlikda, tumanma-tuman kezib, ingliz ravedkasi uchun josuslik ma'lumotlarini to'plaganlikda aybdor deb topilib. Mol-mulki esa davlat foydasiga musodara qilinadi. Hukm o'sha kuniyoq ijro etiladi. 1938-yili 5-oktabrda

³⁰ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/xudoybergan-devonov-1878-1940>

³¹ В.Ирзаев, Ю Рахмонова. Хоразм вилояти.Хотира китоби. Б 114-121

³² <https://kun.uz/news/2021/11/07/xudoybergan-devonov-birinchi-ozbek-fotografining-boy-ijodi-va-ayanchli-qismati>

³³ В.Ирзаев, Ю Рахмонова. Хоразм вилояти.Хотира китоби. Б 114-121

Toshkentda o'tkazilgan sudda Xudoybergan Devonov qoralanadi va o'limga hukm etiladi. Lekin manbalarda yozilishicha Devonov 4-oktabr kuni kechasi otilgan ekan. Qiziq 4-oktabr kuni otilgan inson uchun nega 5-oktyabr kuni sud tashkil etilgan?

Ammo Stalinning o'limidan keyin qatag'on qilingan ko'plab ziyolilar qatori Xudoybergan Devonovning jinoyat ishi ham qayta ko'rib chiqiladi. Oliy Sud harbiy kollegiyasi 1959-yilda unga nisbatan chiqarilgan hukmni bekor qilib, mutlaqo aybsiz deb topadi va oqlash haqida qaror chiqaradi.

O'sha paytlarda Stalin O'rta Osiyoda tug'ilgan ko'plab ma'rifatparvar insonlarni va jadidlarini nohaq ayblovlari bilan o'limga hukm qiladi. U insonlar vatanni mustaqillikka olib chiqishidan qo'rqib o'lim hukmini o'qiydi. Hattoki juda ham yomon ayblovlari bilan qoralanadi.

Mustaqillik yillarida jadidlarini oqlash va ular shaxsiyatini o'rganish ishlari olib borildi va hali ham davom etmoqda. Ular insonlarni yaxshilikka chorlashgan. Agar jadidlarimiz o'limga hukm etilmaganiga manlakatimiz ancha oldin mustaqillikka erishgan bo'lar edi va hozirgi kunda Yevropa davlatlari bilan bellasha olar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://kun.uz/news/2021/11/07/xudoybergan-devonov>
2. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/84>
3. В.Ирзаев, Ю Рахмонова. Хоразм вилояти.Хотира китоби. Б 114-121
4. О'sha asar О'sha bet
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-ziyolilari/xudoybergan-devonov-1878-1940>
6. В.Ирзаев, Ю Рахмонова. Хоразм вилояти.Хотира китоби. Б 114-121
7. <https://kun.uz/news/2021/11/07/xudoybergan-devonov-birinchi-ozbek-fotografining-boy-ijodi-va-ayanchli-qismati>
8. В.Ирзаев, Ю Рахмонова. Хоразм вилояти.Хотира китоби. Б 114-121